

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Abdulxamidov Izzatullo Shuhratillo o'g'li
Andijon Davlat Pedagogika Instituti,
Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich magistranti
0009-0005-8306-7191
izzatulloabdulxamidov@gmail.com
+998912917779

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivatsiyasining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning motivatsiyasini shakllantiruvchi omillar, shu jumladan ota-onalar va o'qituvchilarning roli, o'quvchilarning temperament xususiyatlari, o'quv muhitining ta'siri, shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik va do'stlik aloqalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot metodlari sifatida psixologik testlar, so'rovnomalar, sifatli intervyular, kuzatuvlar va darsdagi o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish qo'llanilgan. Natijalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o'qituvchilarning pedagogik yondashuvi, ota-onalarning ta'limdagi faolligi va sinf ichidagi ijtimoiy muhitning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, o'quv motivatsiyasi, psixologik omillar, rag'bat, shaxsiy rivojlanish, o'quv faoliyati, ichki va tashqi motivlar, o'qituvchi yondashuvi, ota-onalar roli, ijtimoiy xavfsizlik, do'stlik aloqalari, bullying, o'quv muhitining ta'siri.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается формирование учебной мотивации у учащихся младшего школьного возраста и психологические, социальные и педагогические факторы, влияющие на нее. В исследовании анализируются факторы, формирующие мотивацию учащихся, включая роль родителей и учителей, особенности темперамента учащихся, влияние образовательной среды, а также социальную безопасность и дружеские отношения. В качестве методов исследования использовались психологические тесты, анкеты, качественные интервью, наблюдения и анализ учебной деятельности учащихся на уроках. Результаты подчеркивают важность педагогического подхода учителей, активности родителей в образовательном процессе и социальной среды в классе для повышения мотивации учащихся.

Ключевые слова: младший школьный возраст, учебная мотивация, психологические факторы, мотивация, личностное развитие, учебная деятельность, внутренние и внешние мотивы, педагогический подход учителя, роль родителей, социальная безопасность, дружеские отношения, буллинг, влияние образовательной среды.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the formation of learning motivation in elementary school-age students and the psychological, social, and pedagogical factors influencing it. The study examines the factors that shape students' motivation, including the role of parents and teachers, students' temperament characteristics, the influence of the learning environment, as well as social safety and friendship relations. Research methods such as psychological tests, surveys, qualitative interviews, observations, and the analysis of students' classroom activities were used. The results emphasize the importance of the teacher's pedagogical approach, parental involvement in education, and the significance of the social environment within the classroom to enhance students' motivation.

Keywords: Elementary school age, learning motivation, psychological factors, motivation, personal development, learning activity, internal and external motivators, teacher's approach, parental role, social safety, friendship relations, bullying, influence of the learning environment.

Kirish. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv faoliyatiga motivatsiyasi shakllanadi va bu ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchining o'rganishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi va uni harakatlantiradi. Kichik maktab yoshida o'quvchilarda motivatsiyaning shakllanishi bir qator psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarga bog'liq bo'lib, o'quv muhitining ta'siri, oilaviy munosabatlar, ota-onalar va o'qituvchilarning faol ishtiroki hamda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy xavfsizlik muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda motivatsiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni chuqur tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini shakllantirish psixologik jihatdan juda muhimdir. Bu yoshda o'quvchilarda motivatsiyaning shakllanishi, asosan, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi. O'quvchilarning rag'batlantirish mexanizmlari, o'ziga bo'lgan ishonch va o'rganishga bo'lgan qiziqish kabi psixologik omillar ularga ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Ushbu tahlil kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda motivatsiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, olimlarining adabiyotlariga asoslanadi. Abdullayeva M[1. 45b].

“O‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning motivatsiyasi” Abdullayeva o‘zining tadqiqotida o‘quvchilarni motivatsiya bilan ta‘minlashning psixologik asoslarini o‘rganadi. U o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ichki va tashqi rag‘batlarni ajratadi. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining shakllanishi, ularga taqdim etilayotgan qiziqarli va mazmunli o‘quv materiallarining ta‘siri katta ahamiyatga ega. Shuningdek, u pedagoglarning o‘quvchilar bilan individual yondashuvni qo‘llashi, ularning qiziqishlarini, ehtiyojlarini inobatga olib, darsni jonlantirish zarurligini ta‘kidlaydi. Bu omillar o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Tursunov Sh.[2.88b]–“Bolalar psixologiyasida motivatsiyaning o‘rni” Tursunovning tadqiqoti motivatsiyaning bolalar psixologiyasidagi o‘rni va uning shakllanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganadi. Olim motivatsiyaning ichki va tashqi turlari orasidagi farqni ajratib ko‘rsatadi va o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi (o‘rganishga bo‘lgan qiziqish) tashqi motivatsiyaga (baholar, sovg‘alar) qaraganda uzoq muddatli va samarali bo‘lishini ta‘kidlaydi. Shuningdek, Tursunov o‘quvchilarning hissiy holati, ijtimoiy muhit va o‘qituvchi bilan aloqaning motivatsiya shakllanishidagi ahamiyatini o‘rganadi. Xodjayeva R[3.33b].

“O‘quv motivatsiyasi va uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillar” Xodjayeva o‘zining tadqiqotida o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarning tahlilini o‘tkazadi. U o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda ular bilan ishlovchi o‘qituvchining roli, oilaviy muhit va o‘quvchilarning temperament xususiyatlari katta ahamiyatga ega ekanligini aniqlaydi. Xodjayeva ta‘kidlaganidek, o‘quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga, shuningdek, ularning o‘zaro munosabatlari va o‘qituvchi bilan ishonchli muloqoti motivatsiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Mirzaahmedov N. [4.52b] “O‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishning psixologik asoslari” Mirzaahmedov o‘z tadqiqotida o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun psixologik yondashuvlarni o‘rganadi. Olim motivatsiyaning shakllanishida o‘quvchilarning o‘zini anglash darajasi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlarga bo‘lgan ishonch va ijtimoiy aloqalarning ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining kuchayishi, ularni yanada faolroq o‘rganishga undaydi, bu esa o‘z navbatida motivatsiyaning oshishiga olib keladi.

To‘raqulov Z.[5.71b]– “Kichik maktab yoshidagi bolalarda motivatsiya va uning shakllanishi” To‘raqulov o‘z tadqiqotida kichik maktab yoshidagi bolalarda motivatsiya shakllanishining psixologik asoslarini o‘rganadi. U o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda shaxsiy qiziqishlarning, emotsional holatlarning, o‘qituvchining pedagogik yondashuvining ta‘siri haqida batafsil fikr yuritadi. Shuningdek, u o‘quvchilarning ijtimoiy do‘stlik aloqalari va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro raqobatning motivatsiyaning shakllanishidagi o‘rinlarini ta‘kidlaydi.

Deci, E. L. & Ryan, R. M. [6.163b]– “The ‘What’ and ‘Why’ of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior” Deci va Ryan o‘zlarining ishlari orqali motivatsiyaning ichki va tashqi shakllarini tushuntirib beradi. Ular motivatsiyaning o‘rganishga bo‘lgan qiziqish (ichki motivatsiya) va tashqi rag‘batlar (mukofotlar, jazolar) orasidagi farqni ajratadilar. Ularning Self-Determination Theory (SDT) modeli motivatsiyaning shakllanishida insonning o‘zini anglash, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini qondirishning muhimligini ta’kidlaydi. Tadqiqotda bolalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarurligi ko‘rsatilgan.

Zimmerman, B.J.[7.220b] “Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective” Zimmerman o‘z tadqiqotida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan psixologik omillarni o‘rganadi. U o‘quvchilarning maqsadga erishishdagi motivatsiyasini kuchaytirish uchun o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘zini o‘rganishga qiziqish motivatsiyaning shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot obyekti: Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (6-10 yosh) va ularning o‘quv motivlarini shakllantirishda psixologik omillar.

Kvantitativ metodlar:

So‘rovnomalar: O‘quvchilarning o‘quv motivlari va uning shakllanishi to‘g‘risida ma'lumot olish uchun maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar. So‘rovnomalar yordamida o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini, shuningdek, darslarga bo‘lgan qiziqish, muvaffaqiyatga erishish istagi va ta’lim jarayonidagi ijtimoiy omillarni o‘lchash mumkin.

Tuzilishi: So‘rovnoma o‘quvchilarning yoshlari va kognitiv darajasiga moslashtiriladi. 6-7 yoshdagi bolalar uchun vizual va o‘yinli usullar, 9-10 yoshdagi bolalar uchun esa mantiqiy savollar va fikrlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan savollar kiritiladi.

Kvantitativ tahlil: Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida (masalan, korrelyatsion tahlil) tahlil qilinadi.

Testlar: O‘quvchilarning motivatsiya darajasini o‘lchash uchun psixologik testlar (masalan, muvaffaqiyatga erishish istagi va o‘z-o‘zini anglash darajasini aniqlovchi testlar). Testlarning natijalari o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasini va motivatsiya holatlarini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Tuzilishi: Testlar yosh guruhiga mos ravishda ishlab chiqilib, o‘quvchilarni kognitiv va emotsional jihatdan baholashga imkon beradi.

Sinovlar: O‘quvchilarning turli motivatsion holatlarda qanday javob berishini kuzatish uchun turli eksperimentlar (masalan, rag‘batlantiruvchi usullarni sinash). Sinovlar

natijalarini baholashda, motivatsiyaning kuchayishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin.

Sifatli metodlar:

Intervyular: O'quvchilarga individual yoki kichik guruhlar bo'lib motivatsiya, o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqish va ta'limga bo'lgan psixologik munosabatlarni o'rganish. Ma'lumot olishning chuqurligi: Intervyu davomida, o'quvchilarning his-tuyg'ularini tushunishga va ularning o'z-o'zini anglash darajasi hamda o'qishga bo'lgan munosabatini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kuzatishlar: Sinfda va sinfdan tashqarida o'quvchilarning faoliyatlarini kuzatish. O'quvchilarni dars jarayonida, o'qituvchiga va o'rtoqlik munosabatlariga bo'lgan reaksiyalarini kuzatib borish.

Yosh guruhlar bo'yicha: 6-7 yoshdagi bolalar bilan turli o'yinlar orqali, 9-10 yoshdagi bolalar bilan esa mantiqiy va tahliliy faoliyatlar orqali motivatsion holatlarni kuzatish.

Guruh muhokamalari: O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, o'quv motivlari haqida muhokama qilish. Bu metod o'quvchilarning o'zaro aloqalari, o'qishga bo'lgan qiziqishlari va ta'limga bo'lgan munosabatlarini ko'proq tushunishga yordam beradi.

Eksperimental metod:

Motivatsiyani oshirishga qaratilgan eksperimentlar: Tadqiqot davomida motivatsiyani oshirishga qaratilgan eksperimentlar o'tkazish, masalan, darsda o'quvchilarga turli pedagogik metodlar va rag'batlantirish usullarini qo'llash (mukofotlar, ijobiy fikrlar, muvaffaqiyatni tasdiqlash).

Tahlil va baholash: Har bir eksperimentni o'tkazishdan keyin natijalarni tahlil qilish, rag'batlantirish usullarining samaradorligini baholash. Tadqiqotda o'quvchilarni motivatsiya qilish uchun ishlatiladigan metodlar samaradorligini o'lchash va ularning ta'sirini ko'rish muhim. O'quvchilarning motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillarni eksperiment orqali aniqlash: Darsda o'quvchilarni turli rag'batlantirish metodlari bilan ta'minlash va ularning ta'sirini baholash. Bu eksperimentlar o'quvchilarda muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayoni: O'quvchilarning motivatsiya darajasini baholash: Birlamchi o'lchov: Tadqiqotning dastlabki bosqichida o'quvchilarga turli xil testlar, o'yinlar va mashg'ulotlar orqali motivatsiya darajalarini o'lchash amalga oshiriladi. Yosh guruhlariga moslashuvchan metodlar: 6-7 yoshdagi bolalar uchun ko'proq vizual va o'yinlar orqali, 9-10 yoshdagi bolalar uchun esa mantiqiy va tahliliy metodlar qo'llaniladi.

Psixologik omillarni aniqlash: Oilaviy muhit va o'qituvchilarning pedagogik uslublari: O'quvchilarning oilaviy holati va ota-onalarning ta'limga bo'lgan

qiziqishlarini o'rganish. O'qituvchilarning pedagogik uslublari va ularning o'quvchilarga bo'lgan ta'sirini aniqlash.

Sinf ichidagi ijtimoiy muhit va o'rtoqlik munosabatlari: O'quvchilarning o'rtoqlik munosabatlari va sinfdagi ijtimoiy holati qanday motivatsion omilga aylanishini tahlil qilish.

Nazariy tahlil. Kichik maktab yoshi — bu 6–11 yosh oralig'idagi davr bo'lib, bolalarning maktab muhitiga moslashuvi, o'qishga bo'lgan munosabati va ta'limga bo'lgan motivatsiyasi shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Bu yoshda o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularning shaxsiyati, o'z-o'zini anglash darajasi va ijtimoiy tajribasi ham shakllanadi. Shu sababli o'quv motivlari — bolaning o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishlari — bu davrda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni nazariy jihatdan tahlil qilish, ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda muhimdir.

Motivatsiyaning o'zgaruvchanligi va murakkabligi: Motivlar ikki asosiy turga bo'linadi: Ichki motivatsiya – bilim olishning o'zi yoqimli jarayon bo'lib, o'quvchi o'z qiziqishi, o'z-o'zini rivojlantirish istagi bilan o'qishga kirishadi. Tashqi motivatsiya – mukofot (baho, maqtoov, sovrin), jazodan qochish, tengdoshlar yoki o'qituvchining bosimi orqali yuzaga keladi. Motivatsiyaning o'zgaruvchanligi o'qish jarayonida muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar ba'zan tashqi mukofotlarga bog'lanib, faqat baho olishga yoki muvaffaqiyatga erishishga intiladilar, bu esa ularning ichki motivatsiyasini susaytirishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirish uchun o'qituvchilar tomonidan shaxsiy yondashuvlar, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va o'qishning o'ziga qiziqarli ekanligini ko'rsatish zarur. Ushbu motivatsiyaning turli shakllarini qanday muvofiqlashtirish mumkinligi, masalan, tashqi rag'batlar (baholar, mukofotlar) va ichki qiziqishlar o'rtasida qanday balansni saqlash kerakligini ko'rsatish lozim. Shuningdek, bolalarda motivatsiyaning turli shakllari qanday rivojlanadi va ularga qanday pedagogik metodlar bilan yondashish kerakligini aniq belgilash zarur.

O'qituvchilar va ota-onalarning ta'siri. Ota-onalar va o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan munosabatlari va yondashuvlari ularning motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ulardan haddan tashqari talablar yoki bolaga ortiqcha bosim o'tkazish motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda va ularga o'zlarini erkin ifodalash imkonini berishda ehtiyotkorlik bilan yondashishlari lozim. Agar o'qituvchi faqat baho yoki yuqori natijalarga qaratilgan bo'lsa, bu bolalarda stressni va qo'rquvni oshirishi mumkin. Shuning uchun, ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, bolalarga muvaffaqiyatlarni tasdiqlash va muvaffaqiyatsizliklarni o'rganish imkoniyatini berish muhimdir.

Shaxsiy ehtiyojlar va qiziqishlar. O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlari o'qish motivatsiyasini oshirishi mumkin. Lekin ba'zi hollarda, maktab darslari bolalarning qiziqishlariga to'liq mos kelmasligi mumkin, bu esa ularning o'qishga qiziqishlarini kamaytiradi. O'qituvchilar, o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va o'qish materiallarini shu qiziqishlarga moslashtirish orqali motivatsiyani oshirishlari kerak. Bu jarayon bolalarni o'zlarining shaxsiy qiziqishlariga qarab o'qitishda ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shuningdek, qiziqarli va interaktiv o'qish usullari (masalan, o'yinlar, loyiha asosidagi o'qish) motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda o'quv motivatsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Oila va tarbiya muhiti. Oila bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari, va umumiy munosabatlarini shakllantiruvchi eng asosiy omil hisoblanadi. Ota-onalarning ta'limga bo'lgan munosabati bolada o'qishga qiziqish va rag'batlantirishni yaratadi. Agar ota-onalar o'qish va bilimga katta e'tibor berishsa, bolada o'qishga qiziqish va o'qishdan motivatsiya olish xususiyati shakllanadi. Ota-onaning bolaga bo'lgan umidlari va talablarining aniq va real bo'lishi, o'quvchilarda o'zini erishishga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Emotsional qo'llab-quvvatlash ham muhim rol o'ynaydi. Agar bola o'qish jarayonida xatolar qilsa va ularni to'g'rilash uchun uyda qo'llab-quvvatlashni his etsa, bu bolada o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Psixologik xavfsizlik muhitida o'qish, bolaning o'zini erkin his qilishi va yangi narsalarni o'rganishga ochiq bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchining shaxsiyati va metodlari. O'qituvchining shaxsiyati va pedagogik mahorati o'quvchilarning motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchi mehribon, hurmatli va adolatli bo'lsa, o'quvchilar unga ishonch hosil qiladilar va undan o'rganishga motivatsiya olishadi. O'qituvchining individual yondashuvi ham juda muhim, chunki har bir bola o'ziga xosdir va uning ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchining yondashuvi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Qiziqarli va interaktiv metodlar, masalan, o'yinlar, guruhli ishlar, va loyihaviy topshiriqlar, o'quv jarayonini jonlantiradi. Bu metodlar o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Bu usullar, shuningdek, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Tengdoshlar bilan munosabat. Tengdoshlar bilan ijtimoiy munosabatlar o'quvchining motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi o'zining ijtimoiy maqomini va tengdoshlar orasidagi baholanishni sezadi. Raqobat hissi, masalan, sinfda eng yaxshi natijalarni ko'rsatishga intilish, o'quvchini yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Biroq, agar tengdoshlar tomonidan bosim, tanqid yoki izolyatsiya his qilinsa,

bu bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin. Shu sababli, o'quvchilarning ijtimoiy aloqalarining salbiy tasiri motivatsiya yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar. O'quvchining temperament, irodaviy sifatlar, o'ziga bo'lgan ishonch, qiziqishlar va ehtiyojlari motivatsiya darajasini belgilaydi. Masalan, o'quvchi o'zining muvaffaqiyatga qodirligini his qilsa, u ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladi. Agar bola o'zini qobiliyatli deb bilsa, o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishga intiladi. Shaxsiy xususiyatlar hammasi o'zaro bog'liq, chunki bolaning temperamentiga qarab, u o'zini qaysi holatlarda erkin yoki noqulay his qilishi mumkin. O'ziga bo'lgan ishonch, bolaning muvaffaqiyatga erishishdagi ishtiyoqini oshiradi.

Baholash va rag'batlantirish tizimi. Baholash va rag'batlantirish tizimi tashqi va ichki motivatsiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tashqi rag'batlantirish (masalan, mukofotlar, baholar) o'quvchini ma'lum natijalarga erishishga undasa-da, bu faqat qisqa muddatli motivatsiya beradi. Haddan ortiq baholash tizimi ichki motivatsiyani susaytirishi mumkin, chunki o'quvchilar faqat tashqi mukofotlarga qaratilgan holda ishlashga majbur bo'lishadi. Ko'proq jarayonni qadrllovchi yondashuv, ya'ni o'quvchining harakatlarini e'tirof etish va uni rag'batlantirish ichki motivatsiyani rivojlantiradi. O'quvchi o'qish jarayonida o'z faoliyatini qadrlashni sezsa, uning ichki motivatsiyasi kuchayadi va o'quv jarayoniga bo'lgan ishtiyoqi oshadi.

O'quv muhitining sifati. O'quv muhitining sifati, darslar mazmunining hayotiyliigi va mavzularning bolalarning kundalik tajribalariga yaqinligi motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar darslar mazmuni bolalar uchun qiziqarli, ular uchun dolzarb va hayotiy bo'lsa, ular o'qishga yanada faol kirishadi. O'quv muhitining tashkiliy va didaktik jihatdan to'g'ri qurilishi ham muhim. Darslar o'quvchilarga samarali tarzda taqdim etilishi, bolalar uchun qulay va qiziqarli bo'lishi kerak. Bu holatda, o'quvchilar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini saqlab, motivatsiyalarini oshiradilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik yondashuvi, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligi, shuningdek, o'quv muhitining ahamiyati katta. Ichki motivatsiya, o'quvchilarning o'z qiziqishlari va o'zini rivojlantirishga bo'lgan istagi, tashqi motivatsiya esa baholar, mukofotlar va ijtimoiy raqobat orqali shakllanadi. O'qituvchilarning shaxsiy yondashuvi va bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish motivatsiyaning samarali shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, oila va oilaviy muhit, ota-onalarning ta'limga bo'lgan munosabati, bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy xavfsizlik, o'quvchilar orasidagi do'stlik aloqalari va o'zaro hurmatning mavjudligi ham o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda o'quvchilarni motivatsiyalash uchun turli

pedagogik metodlar va rag'batlantiruvchi usullarni qo'llash zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun ijtimoiy va pedagogik muhitni yaxshilash, o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarini va ota-onalar bilan hamkorligini rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, shaxsiy qiziqishlarini va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish orqali ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini davom ettirish va ularning muvaffaqiyatga erishishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.Abdullayeva M.-“O'quvchilarni rag'batlantirish va ularning motivatsiyasi”.2021.yil
2. Tursunov Sh -“Bolalar psixologiyasida motivatsiyaning o'rni”.2020 yil.
3. Xodjayeva R.-“O'quv motivatsiyasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar”.2019yil.
4. Mirzaahmedov N. (2017) – “O'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishning psixologik asoslari”.
5. To'raqulov Z. - “Kichik maktab yoshidagi bolalarda motivatsiya va uning shakllanishi”. 2021-yil.
6. Deci, E. L. & Ryan, R. M. -The ‘What’ and ‘Why’ of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior”.2000yil.
7. Zimmerman, B. J. “Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective”. 2020-yil.
8. Ibragimov B. -“O'quvchilarning motivatsiyasi va uning o'qishdagi ahamiyati”. 2020-yil.
9. Sattarova G. -“O'quvchilarning o'zini o'zi rag'batlantirish va muvaffaqiyatga erishish”. 2017-yil.
- 10.Kuchkarov A. - “Rag'batlantirish va motivatsiyaning ta'lim jarayonidagi roli”. 2019-yil.
- 11.Mahmudov F.-“O'quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishda pedagogik yondashuv”. 2021-yil.
- 12.Abdurakhmanov S. “Motivatsiya va o'qituvchi hamkorligi”.2018-yil.
- 13.Ryan, R. M. & Deci, E. L. “Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being”. 2002-yil.
- 14.Vallerand, R. J. “Toward a Hierarchical Model of Intrinsic and Extrinsic Motivation”. 1997-yil.
- 15.Bandura, A. “Self-Efficacy: The Exercise of Control”. 1997-yil.